



TOSHKENT SHAHRIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT

2022 - yil 1 – noyabr holatiga ko‘ra
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)



Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiy rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning hududiy markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.


Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2022 - yil 1 - noyabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarsiz) shakllantirildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar	120 574 106,9 %
Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar	115 777 107,0 %
Yangi tashkil etilgan korxonalar (2022 - yilda)	13 235 92,5 %

Mamlakatimizda qulay ishbiarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2022 - yil 1 - noyabr holatiga ko'ra, ming birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni

(tashkiliy-huquqiy shakllar tasnifi bo'yicha
2022 - yil 1 - noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

4




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2022 - yil 1 - noyabr holatiga ko'ra, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, 2022 - yil yanvar - oktabr oylarida, birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2022 yil yanvar - oktabr oylarida, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)




Sanoat sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2022 - yil 1 - noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **2,1** foizga kamaydi




■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar



Oilaviy korxonalar



0,1 foizga kamaydi



4,2 foizga kamaydi




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan

2,0 foizga kopaydi

Xususiy korxonalar



O'tgan yilga nisbatan

12,8 foizga pasaydi




Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2022 – yil 1 – noyabr holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **5,4** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari




5,3 foizga oshdi



Mikrofimlar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




6,9 foizga oshdi



Oilaviy korxonalar




5,9 foizga kamaydi




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan **12,3** foizga oshdi









Xususiy korxonalar




10,4 foizga kamaydi






Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni




Xususiy korxonalar






Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1 - noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



Oilaviy korxonalar soni

(2022 – yil 1 - noyabr holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2022 - yilning 1 - noyabr holatiga ko'ra 3 972 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 172 taga yoki 4,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 3 768 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 154 taga yoki 4,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022 - yilning yanvar - oktabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 411 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 24 taga yoki 6,2 % ga ko'payganini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining tumanlar kesimidagi soni

(2022 - yil 1 - noyabr holatiga ko'ra, birlikda)






Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2022 - yil 1 - noyabr holatiga ko'ra 9 519 tani tashkil etib, ulardan 9 248 tasi yoki 97,1 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda faoliyat ko'rsatayotganlari 1 330 taga yoki 16,8 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022 - yilning yanvar - oktabr oylarida 1 609 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2022 - yil yanvar - oktabr oylarida, birlikda)




**Toshkent shahrida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2022 - yil 1 – noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	<i>shundan:</i>	
		<i>qo'shma korxonalar</i>	<i>xorijiy korxonalar</i>
Rossiya Federatsiyasi	1 895	776	1 119
Qozog'iston Respublikasi	903	318	585
Ozarbayjon Respublikasi	196	56	140
Ukraina Respublikasi	159	72	87
Qirg'iz Respublikasi	162	51	111
Tojikiston Respublikasi	118	45	73
Turkmaniston Respublikasi	64	21	43
Belarus Respublikasi	126	41	85
Armaniston Respublikasi	34	16	18
Moldova Respublikasi	23	7	16

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni


(2022 - yil 1 – noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

13



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(1 – noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



O'zbekiston MDH doirasida amaldagi o'zaro savdo tartibini yomonlashtirmaydigan tamoyillarga asoslangan, to'laqonli erkin savdo hududini tashkil etish tarafdoridir. Bu MDH hududida barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi hududida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni oshib borayotganini inobatga olganda, ularning asosiy ulushi (jami xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalariga nisbatan) Rossiya Federatsiyasi 20,5 %, Qozog'iston Respublikasi 9,8 %, Ozarbayjon Respublikasi 2,1 %, Qirg'iz Respublikasi 1,7 % va Tojikiston Respublikalari 1,3 % ga to'g'ri kelmoqda.

Tumanlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(2022 - yil 1 – noyabr holatiga ko'ra, birlikda)


14

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonona	xorijiy korxonona
Toshkent shahri	9 248	3 233	6 015
tumanlar:			
Uchtepa	321	100	221
Bektemir	197	94	103
Yunusobod	1113	413	700
Mirzo Ulug'bek	1255	427	828
Mirobod	1547	434	1113
Shayxontohur	657	269	388
Olmazor	468	217	251
Sirg'ali	323	119	204
Yakkasaroy	1477	469	1008
Yashnobod	777	306	471
Yangihayot	139	55	84
Chilonzor	974	330	644

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Mirobod – 1 547 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 16,7 %), Yakkasaroy – 1 477 ta (16,0 %), Mirzo Ulug'bek – 1 255 ta (13,6 % hamda Yunusobod tumanlarida 1 113 tani (12,0 %) tashkil etgan. Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning eng kam qismi Yangihayot 139 tani (1,5 %), Bektemir 197 ta (2,1 %), hamda Uchtepa – 321 ta (3,5 %) tashkil etgan.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni

(2022 - yil 1 - noyabr holatiga ko'ra, birlikda)




2022 – yil 1 – noyabr holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar 120 574 tani tashkil etib, tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning jamiga nisbatan ulushi Chilonzor – (12,7 %), Yunusobod – (12,5 %), Mirzo Ulug'bek – (11,5 %), Olmazor – (10,0 %), Shayxontohur – (9,7 %), Uchtepa – (8,7 %), Yakkasaroy – (8,6 %), Mirobod – (8,3 %), Yashnobod – (8,3 %), Sirg'ali – (5,0 %), Bektemir – (2,4 %) hamda Yangihayot tumanlarida (2,3 %) ni tashkil etgan.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni


(2022 - yil yanvar - oktabr oylarida, birlikda)

2022-yil yanvar-oktabr oyida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni 13 235 ta bo'lib, tumanlar kesimida taqsimlanganda ularni jamiga nisbatan ulushi Chilonzor – (12,3 %), Yunusobod – (11,9 %), Mirzo Ulug'bek – (12,1 %), Yashnobod – (9,4 %), Shayxontohur – (9,2 %), Olmazor – (9,2 %), Yakkasaroy – (8,5 %), Mirobod – (8,2 %), Uchtepa – (7,6 %), Sirg'ali – (5,6%), Yangihayot (3,5 %) hamda Bektemir – (2,5 %) tumanlarida tashkil etgan.



Tashkil etilgan oilaviy korxonalar



(2022 - yilning yanvar –oktabr oylarida, birlikda)



2022 - yilning yanvar - oktabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining soni 411 ta bo'lib, ularni tumanlar kesimida taqsimlanganda Shayxontohur – (12,4 %), Olmazor – (12,9 %), Yunusobod – (12,9 %), Uchtepa – (10,9 %), Yashnobod – (9,7 %), Chilonzor – (8,8 %), Sirg'ali – (7,8 %), Yangihayot – (6,8 %), Mirobod – (5,1 %), Bektemir (4,1 %), Yakkasaroy – (4,6 %), hamda Mirzo Ulug'bek tumanlarida (3,9 %) ni tashkil etgan.

Tumanlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2022 – yilning yanvar - oktabr oylarida, birlikda)



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar


Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri - axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Toshkent shahar statistika boshqarmasi

Statistik registrarni yuritish bo'limi

tel.: 71 203-88-31